

**YOSHLARDA FUQAROLIK MAS'ULIYATI VA IJTIMOIIY
FAOLLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIIY-MA'RIFIY ASOSLARI**

Utayev G'ayrat G'aybullaevich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Maxsudov Jaxongir Marufjonovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
1-son davolash 404 –bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada yoshlarda fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishning ma'naviy-ma'rifiy asoslari tahlil qilingan. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlarning o'rni, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalari, oila va mahalla institutlarining yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** yoshlar, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik, ma'naviyat, ma'rifat, fuqarolik jamiyati, milliy qadriyatlar, tarbiya, ijtimoiy ong, yangi O'zbekiston, uchinchi renessans, taraqqiyot, kuchli fuqarolik jamiyati, ma'naviyat, madaniyat, yuksalish, yoshlar, innovatsion tafakkur, milliy g'oyaga sodiqlik, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot, yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlarning huquqiy madaniyatini takomillashtirish, xalq ta'limi tizimi, zamonaviy texnologiyalar.*

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini oshirish va ularni ijtimoiy faol hayotga jalb etish davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari yoshlarning intellektual salohiyati, ijtimoiy faolligi va vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash, ularda fuqarolik burchi va mas'uliyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Yoshlarda fuqarolik mas‘uliyatining nazariy asoslari.

Fuqarolik mas‘uliyati shaxsning davlat va jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarini anglashi, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy faollik esa insonning jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarga befarq bo‘lmasligi, ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashi va umumiy taraqqiyotga hissa qo‘shishga intilishini anglatadi.

Fuqarolik mas‘uliyati demokratik jamiyatning muhim mezonlaridan biri bo‘lib, shaxsning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy madaniyati darajasini ifodalaydi. U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Vatanga sadoqat va yurt taqdiriga daxldorlik hissi;
- Qonunlarga rioya qilish madaniyati;
- Jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish;
- Ijtimoiy tashabbuskorlik va mas‘uliyatlilik;
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat.

Yoshlarda mazkur fazilatlarni shakllantirish ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, ma‘naviy yetuklik fuqarolik ongi va ijtimoiy mas‘uliyatning muhim poydevoridir.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Milliy qadriyatlar va ma‘naviy meros;

Ta'lim-tarbiya jarayoni;

Oila institute;

Mahalla va jamoatchilik institutlari;

Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari;

Hozirgi kunda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan:

- Volontyorlik harakatlarini rivojlantirish;
- Yoshlar parlamenti va yoshlar kengashlari faoliyatini kengaytirish;
- Ijtimoiy loyihalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash;
- Raqamli platformalar orqali fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish;
- Media savodxonlik va axborot madaniyatini oshirish.

Mazkur mexanizmlar yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtiroki va mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Biz yoshlarning mamlakatimiz hayotidagi demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishiga ularning siyosiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim". [1]

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniyligni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bilan bog‘liq vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 18.01.2021 yildagi 23-sonli qarori [2] qabul qilindi.

Jahondagi globallashtirish jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko‘plab talablarni qo‘ymoqda. Umuman, yoshlarning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida zamonaviy, ilg‘or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O‘zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda.

Jumladan, Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liqligi, bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblashini, O‘zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etgan edi.

Binobarin, yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ma‘naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e‘tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham

shuncha yuqori bo‘ladi. Shu bois O‘zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e‘tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta‘minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat‘iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

“Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”. [3]

Modomiki, dunyo tobora globallashib, jadal sur‘atlarda o‘zgarib va murakkablashib borayotgan XXI asrda yashayotgan ekanmiz, hozirgi zamonning g‘oyat muhim bir voqeligiga e‘tibor qaratmasligimiz mumkin emas. Ya‘ni, salmoqli inson kapitaliga ega bo‘lgan va bu sarmoya tarkibida yoshlar juda katta o‘rin tutadigan mamlakatlar izchil rivojlanish, innovatsiya salohiyatini muvaffaqiyatli jamg‘arish va o‘z yutuqlarini samarali tasarruf etish borasida ustuvor imkoniyatlarga egadir.

Jahon yoshlari sog‘liqni saqlash tizimi xizmatidan foydalanish, sifatli ta‘lim olish, maqbul ish topish va munosib mehnat qilish, ichki va tashqi mehnat migratsiyasi ishtirokchisiga aylanish, oziq-ovqat xavfsizligi va me‘yorda ovqatlanish, ijtimoiy yakkalanish va jamiyatdan begonalashish kabi yangidan-yangi tashvishlar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bunday vaziyatda yoshlar huquqlarini himoya qilishga doir huquqiy mexanizmlarni to‘la ravishda saqlab qolish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng muhimi, yoshlar tub yangilanishlarni boshlab beradigan va shijoatli o‘zgarishlarning boshida turadigan qudratli kuchdir. Ularning zimmasida o‘z

salohiyatini baralla namoyon etib, bugungi va kelgusi avlodlar uchun maqbul va manzur hayot barpo etish mas'uliyati turibdi.

Ammo, ijtimoiy jihatdan olib qaraganda, navqiron avlod hayotning barcha sohalarida davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashiga mushtaq, kerak bo'lsa, muhtoj ekani ham bor gap. Ayniqsa, bugun yoshlarni ravnaq toptirishga yo'naltirilgan muayyan mablag'lar ajratish, davlatning yoshlar siyosatini amalda samarali tatbiq etish uchun zamonaviy infratuzilma barpo etish, inson huquqlarini ta'minlash sohalarida ko'plab muammolar amaliy yechimini kutmoqda.

Binobarin, mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. xususan milliy o'zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim".
[4]

Markaziy Osiyo dunyodagi eng yosh mintaqa bo'lib, aholisining o'rtacha yoshi 27,6 yoshni tashkil etadi. Mintaqa aholisining 50 foizga yaqini O'zbekiston Respublikasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz aholisining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Yoshlarning 9,5 millioni erkak, 9,4 millioni esa ayol jinsiga mansub.

Yurtimizda yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan yoshlar siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik vazifalarning amalga oshirilishi O'zbekistonda barqarorlik, tinchlik va farovonlikni ta'minlashga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Respublikada yoshlar manfaatlarini himoya qiladigan 830 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida 2020 yil 25 dekabr kuni O'zbekiston yoshlari forumi o'tkazildi. O'ttiz mingdan ortiq yoshlar ishtirok etgan forumda Davlat rahbari tomonidan yoshlar bilan muloqot qilinib, ularning g'oyalari, taklif va tashabbuslari qo'llab-quvvatlandi.

Birgina 2021 yilning o'zida Respublika bo'ylab 6 millionga yaqin g'ayrati baland, intiluvchan yoshlar ishtirokida yetuklik va haqiqiy vatanparvarlik ko'rigi bo'lgan "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida festivallar o'tkazildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev 30 iyun kuni O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida ishtirok etdi.

Jumladan, 2021 yil 12-13 avgust kunlari Toshkentda o'tkazilgan "Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish" mavzuidagi Yoshlar huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasi yakunida Toshkent Yoshlar deklaratsiyasi qabul qilindi.

"Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi mobaynida O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida ilgari surilgan yangi tashabbus va g'oyalarni amalga oshirish hamda Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 13.07.2021 yildagi PF-6260-sonli farmonida yoshlar

tomonidan ko‘tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo hamda masalalar yechimi yuzasidan har yili O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kuni arafasida Hukumatning dasturi, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklarining alohida hududiy dasturlari qabul qilinadi hamda mazkur dasturlar yoshlarning bilim va kasb-hunar egallashi, ular uchun munosib ish va turmush sharoitini yaratish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlardan iborat bo‘ladi.

Shunday ekan, ijtimoiy taraqqiyot jarayoni ko‘proq yoshlar va ularning ma‘naviy, intellektual salohiyati, siyosiy va huquqiy bilim darajasiga bog‘liqdir. Bu omillarni to‘g‘ri anglagan holda mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida 18.01.2021 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi konsepsiyasi” qabul qilinishi, yoshlarimizga bolalikdanoq ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa o‘rnida aytib utish kerakki, yurtimiz kelajagi èsh avlodlar qo‘lida ekan, ularni har tomonlama yetuk, insonparvar, jamiyat va tabiat oldida mas‘uliyatli shaxslar etib tarbiyalash eng ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilaètgan ulkan islohotlarning zamirida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” degan haètiy g‘oya turibdi. Milliy yuksalish faqatgina ma‘naviy sohada emas, balki demokratik jamiyat va huquqiy davlat, farovon va tinch-osuda haèt, iqtisodiy jihatdan barqarorlik kabi haètimizning barcha sohalarini taraqqiy ettirishni ko‘zda tutadi.

Mamlakatlarimiz aholisining katta qismini tashkil etadigan yoshlarni jalb etgan holda, ta‘lim va ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida qo‘shma dasturlarni amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar – bizning bebaho boyligimiz ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Mamlakatimiz va xalqimizning taqdiri va kelajagi – aynan yosh avlodning qanday ta’lim va tarbiya olishi, ular uchun qanday shart-sharoit va “sotsial lift”larni yaratib berishimizga bevosita bog‘liq.

Umuman olganda, bugungi yuksalish davri siyosatida mamlakatimizda izchil iqtisodiy islohotlar ijtimoiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu esa hozirda intellektual jihatdan yetuk va ijodiy salohiyatli hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, mamlakatimizning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan yoshlarni tarbiya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirilishini nazarda tutadi.

Mamlakatimizda yoshlar o‘z salohiyat va intilishlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun yaratilayotgan barcha shart-sharoitlar kelgusida ularni barkamol qilib tarbiyalash, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishi, o‘z innovatsion g‘oyalar va tashabbuslari orqali yurt ravnaqi va Vatan tinchiligiga o‘z hissasini qo‘shishiga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Yoshlariga bayram tabrigi // Xalq so‘zi, 2019 yil 1 iyul. № 133(7363).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 18.01.2021 yildagi 23-son qarori // <https://lex.uz/docs/5234746>.

3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B.504-505.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.